

NAVOIY LIRIKASIDA SHE'RIY NUTQ STRUKTURASI VA SHOIR TAXALLUSI

M.M.Rahmatov

ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

mardonrahmat@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada she'riy nutq tuzilishi masalasi o'rganilgan. Nutq egasi va uning subyektini nutq lingvistikasining marqaziy kategoriyalardan biri sanaladi. Nutq egasi va uning subyektini munosabatlarini taxallus misolida o'rganish ham muhim masalalardan sanaladi. Nutq subyektini nutq stukturasi asosiy komponenti bo'lib, sharq she'riyatida uning yaratuvchi (muallifi) she'riy nutq stukturasi ahamiyatli qism sanaldi. Shoirlar aksar g'azal maqtasida taxalluslarga murojlat qilishadi.

Kalit so'zlar: nutq egasi, nutq stukturasi, nutq subyektini, lirik subyektini, lirik qahramon, murojlat obyektini, taxallus.

Abstract. The article examines the structure of poetic speech. The speaker and his subject are one of the central categories of speech linguistics. Studying the relationship between the speaker and his subject on the example of a pseudonym is one of the important issues. The subject of speech is the main component of the speech structure, and in Eastern poetry, its creator (author) is considered an important part of the poetic speech structure. Poets often refer to pseudonyms in praise of ghazals.

Key words: speech owner, speech structure, speech subject, lyrical subject, lyrical hero, object of reference, nickname.

Ma'lumki, lirik asarlar – badiiy nutqning bir ko'rinishi bo'lib, unda nutq egasi – shoirning subyekt kechinmalari yotadi. Nutq egasi o'zining his-tuyg'ularini, o'y-xayollarini lirik asarda badiiy ifodalar ekan, o'zining subyektiv pozitsiyasini, shaxsiyatini birinchi planga chiqaradi, natijada asardagi barcha narsa uning shaxsiyati orqali beriladi va o'quvchi tomonidan qabul qilinadi va anglanadi. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda lirik asarning avtopsihologik bo'lishi, ayni chog'da, lirik sub'ekti bilan biografik shoir har doim ham bir-biriga teng kelmasligi, lirik subyekt shoirning lirik "men"i fonida, ayni zamonda shoir shaxsidan uzilgan holda mustaqil harakatlanish imkoniga ega bo'lgan yetakchi lirik obraz [Quronov, 2013. 18-20] ekanligi qayd qilinadi. Shuning uchun lirik asarlarning nutq subyektini borasida gap borganda ko'pchilik tadqiqotchilar lirik qahramonni nutqning subyekt ko'rinishlaridan biri sifatida qarashadi va lirik asar subyektlarini ikki turga ajratishadi: *tashqi nutq subyektini* va *ichki nutq subyektini* kabi [Kovtunova, 1986. 20].

Lirik asar muallifi, ya'ni nutq egasi – *tashqi nutq subyekt*i sanalsa, matn strukturasi elementlari ma'nosidan anglashiladigan so'zlovchi, ya'ni lirik qahramon *ichki nutq subyekt*idir. O'quvchi uchun tashqi nutq subyekt i u qadar muhim emas, muhimi – ichki nutq subyekt i (lirik asarlardagi lirik – subyekt//qahramon)ning bayon qilayotgan lirik kechinmalari, uning shoir nomidan, shoir tilidan gapira olishi va uning boshqa cheksiz poetik imkoniyatlari.

Lirik asarlar tahlilida lirik qahramon asarning lirik subyekt i sifatida muallifga teng kelishi, ba'zan matnda boshqa bir poetik shaxslar, obrazlar sifatida o'zini namoyon qila olishi eng muhim va alohida e'tibor talab qiladigan nuqtalar sanaladi.

Sharq she'riyatining g'azalnavislik an'anasiga muvofiq har bir shoir g'azal oxirida – maqtasida o'z shaxsini qayd qilish yoki unga ishora qilish, o'z shaxsini ta'kidlash uchun taxallus qo'llaydi. Taxallus tarixan she'riy asar muallifini ko'rsatib turuvchi o'ziga xos imzo, tamg'a [Quronov, 2013. 168] vazifasini bajargan. Lingvisik tadqiqotlarda taxalluslar tilshunoslikning nomshunoslik aspektida onomastik birlik sifatida o'rganilgan [Nuritdinova, 2005. 20]. Ammo uning nutq strukturasi o'rni, nutq egasiga munosabati o'rganilmagan.

She'riy asarlar shoirning kommunikativ pozitsiyasi bir-biriga qarama qarshi, ammo bir-biridan prinsipial farq qiluvchi ikki hodisani birlashtirib turish xususiyatiga ega. Bu ichki nutqning kommunikativ pozitsiyasi bilan bog'liqdir, ya'ni ichki nutq – ichki adresat ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan “o'zi uchun nutq”, ikkinchisi esa, o'zida tashqi adresatni nazarda tutuvchi nutq. Biz ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan “Navoiy” taxallusi va uning bevosita shoir shaxsi – nutq subyektiga munosabati masalalarini “o'zi uchun nutq” turi bilan bog'liq ayrim mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz. Demak, yuqoridagi bayon qilinganlarga muvofiq shoirning “o'zi uchun nutq”ini ikki turga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi tur – o'zi uchun nutq. Shoir murojaat obyekt i (Navoiy taxallusi)ni kommunikatsiya markaziga olib chiqishni niyat qiladi va unga “sen” deb murojaat qiladi:

Ey Navoiy, har nasim ul gul harimi tavfidin

Kim, yetar ravshan qilur ko'nglumdagi hirmon o'ti (G'S 503).

Tilshunoslikda she'riy nutqda so'zlovchining ikkinchi shaxsda “o'ziga o'zi” yo'llagan nutq i *avtokommunikatsiya* deb yuritiladi. Demak, avtokommunikatsiya sof holda ichki tabiiy nutqdir. Bu shoirning o'zi uchun yaratgan nutq i: “o'zi uchun nutq”, “ichki dialog” yoki “monologik nutq” deb ham yuritiladi:

Gar desangkim jong'a etmay har zamon bir javrdin,

Ey Navoiy, pand eshit, yor istama bisyor sho'x (G'S, 109).

Shoir o'zining poetik olami bilan yo'g'rilgan poetik shaxsni baytning kommunikatsiya markaziga olib chiqishni niyat qiladi va u obrazda o'zini ko'radi: unga o'z ismi bilan xitob qiladi:

Ey Navoiy, har nasim ul gul harimi tavfidin

Kim, yetar ravshan qilur ko'nglumdagi hirmon o'ti (G'S 503).

Ikkinchi tur – shoir poetik olami bilan yo'g'rilgan poetik shaxsni baytning kommunikatsiya markaziga olib chiqishni niyat qiladi va "u"nda o'zini ko'radi va "u"nga murojaat qiladi. Shuning uchun "u"nga o'z ismi bilan xitob qiladi:

Ey Navoiy, xush erur xilvat, agar bo'lsa kishi

Dilbari birla ikov, bo'lmasa lek anda birav (G'S 516).

Dedimki: sud qilay jon berib visoli uchun,

Navoiyo, chu firoqida umr kechti, ne sud (G'S 116).

G'azalxon maqta' baytni o'qir ekan, Navoiy murojaat so'zi o'zining lug'aviy ma'nosidan ko'ra yirikroq umumiyroq tushunchalar bilan bog'langanligini his qiladi. U shoirning murojaatlari zahirida Navoiy shaxsidan tashqari shoirga tilda, dilda maslakdosh, hamfikir bo'lganlar, ya'ni tashqi adresat ma'nosi ham mavjud ekanligini angelaydi:

Ey Navoiy, xirqasin berdi, karomat ayladi

Kim, manga tartib vajhi rahni sahbo qildi shayx. (G'S 112)

Ey Navoiy, har nasim ul gul harimi tavfidin

Kim, yetar ravshan qilur ko'nglumdagi hirmon o'ti (G'S 503)

Odatda, undalmalar ikkinchi shaxsda shakllangan gaplar bilan qo'llanadi. Lekin u birinchi va uchinchi shaxsdagi jumlar bilan qo'llanishi ham mumkin. Agar uchinchi shaxsda shakllangan jumla tarkibiga murojaatlar kiritilgan bo'lsa, dialogizatsiyaning mohiyati tubdan o'zgaradi. Masalan, quyidagi baytda murojaat ma'nosi undalma orqali shakllantirilgan, ammo uni biror bir faoliyatga undash ma'nosi mavjud bo'lmaydi. Kommunikativ strukturada uning appelyativ vazifasi mutlaqo so'nadi:

Ey Navoiy, tan qolib jonimni olib bordi yor,

Soldi ul borg'ang'a o't, hijron vale qolg'ang'a o't (G'S, 82).

Shoirga, uning lirik "men"iga maxsus yaqinlik belgisi sifatida murojaat qilinishi nutq yo'nalishi boshqa shaxs yoki tashqi olamga qaratilgan murojaat shakllaridan farq qiladi. Bu nutq shakli so'zlovchiga qaratilgani, bir tomondan, o'ziga o'zi, ikkinchi tomondan boshqa shaxs yoki tashqi olamga yo'naltirilgan og'zaki nutqning dialogik shaklini hosil qiladi.

Ey Navoiy, ka'bayi maqsud vaslin istasang,

Shohi G'oziy qasrining dargohi oliyshonin o'p (G'S, 67).

Agar murojaat so'zlari ikkinchi va uchinchi shaxsda ifodalangan shoir va ayni zamonda adresat, g'azalxon ma'nosi birga anglansa, bunday nutq qo'rinishiga nisbatan *avtoadresatsiya* atamasini qo'llash o'rinli. Boshqacha aytganda, maqta baytlardagi "o'ziga o'zi" murojaat shakllarida ifodalovchi va ifodalanuvchi orasida nomuvofiqlik – asimmetriya har doim kuzatiladi.

Demak, gʻazallar matnida taxallusning vazifasi birdan ortiq: Navoiy murojaat birligi ichki nutq subyekti sifatida shoirning lirik “men”ini, yaʼni poetik ichki adresat maʼnosini hamda tashqi nutq subyekt – shoir shaxshiga ishora qilish vazifasini bajargan.

Shubhasiz, taxallus mazmun mohiyati bilan shoir “men”ini ifodalaydi, ammo u sheʼrdagi shunchaki shoir “men”i emas, balki shoir tomonidan badiiy ishlov berilgan lirik “men”. Alisher Navoiy nutq egasi sifatida gʻazal maqtasida oʻz shaxsini taxallus yordamida ochiqlar ekan, hech qachon oʻzini “men” deb koʻrsatmaydi: “men Navoiyman” demaydi. Shoir oʻziga taxallusi orqali murojaat qiladi, boshqa bir shaxsga murojaat qilganday, oʻzini “sen” deb ataydi yoki “u”nga murojaat obyekti sifatida murojaat qiladi (bu illyuziya, yaʼni oʻquvchi uni nutq egasi sifatida emas, balki chetdan turib kuzatuvchi bir poetik obraz sifatida tasavvur qilishiga imkon beradi). Shoir shu yoʻl bilan oʻzining nutqidan oʻzini begonalashtiradi va ayni paytda shu usul bilan oʻzining “men”ini ifodalaydi. Shoir matnda oʻzini oʻzidan begonalashtirish orqali oʻziga keng poetik imkoniyatlarni ochadi, oʻzi haqida erkin bayon qilish imkonini yaratadi.

“Sen” = Navoiy – “Sen” shoirning eng yaqin suhbatdoshi, u – shoir, u – shoir nazarda tutgan ehtimoliy adresatlar.

“Suhbatdosh” = Navoiy (shoirning oʻzi). lirik subyekt “suhbatdosh”iga oʻzining lirik kechinmalari haqida soʻzlaydi.

Shoir taxallusi matn stukturasida ikkinchi shaxs – “sen” va murojaat obyekti - “suhbatdosh” tarzida reallashadi va shu tarzda nutq egasi (tashqi nutq subyekti)dan chetlashtiriladi.

Shoirning ikkinchi shaxs – “Navoiy – sen”ga murojaati – avtokommunikatsiyadir.

Shoirning ikkinchi shaxs – “Navoiy – sen”, “Navoiy – boshqalar”, uchinchi shaxs – “suhbatdosh”iga murojaati kommunikativ oriyentatsiyaning koʻpqirraligiga dalolat qiladi. Bu sheʼriy nutq turi – avtoadresatsiyadir. Murojaat shakllarining ifodalovchilari va ifodalanuvchilari orasidagi nomuvofiqligi tilshunoslikda asimmetriya deb ham yuritiladi.

ADABIYOTLAR

1. Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. Филол.ф.н...дисс. – Тошкент. 2007. – Б. 26-27.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 томли. 3-том. – Тошкент, 1988. – Б. 616.
3. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. филол.ф.н...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 35.
4. Бозорова Н. Алишер Навоий газалларида кўнгил образи. Филол.ф.номз... дисс. Тошкент. 2002.
5. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. - Тошкент, Фан. 1986. Б. 310.
6. Давлатов О.Маънолар хазинаси. Ж.1. –Тошкент: Tamaddun, 2021. – Б. 331.
7. Жўраева Н.Г. Ўзбек мумтоз шеъриясида байт ва унинг поэтикаси. Филол.фан.номз...диссер. –Т., 2004. – Б. 10-13.
8. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. Тошкент, 1965. – Б. 136.
9. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент, 1983. Б. 168.
10. Ковтунова И. Поэтический синтаксис. –М.: Наука. 1986. – С. 61.
11. Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили.Филол.фан.номз. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс... автореф. – Тошкент, 2005.– Б.24.
12. Нурмонов А.ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т., Фан. 1992. – Б. 44.
13. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчилик боғловчилиги гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол.ф.номз. ...дисс. –Тошкент. 2008. – Б. 32-72.
14. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. -Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 396.
15. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. –Тошкент: Фан, 1984. – Б. 261.